



# IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



BUXORO  
MUHANDISLIK-  
TEKNOLOGIYA  
INSTITUTI



## ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI

2024

MAQOLALAR TO'PLAMI

MAXSUS SON  
Iyun-iyul

INDUSTRY  
4.0



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Mas'ul muharrir:**

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**

**Muharrir:**

**Qurbanov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Rae Kvon Chung**, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

**Xudoqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

**Abduraxanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TMI professori

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori

**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d. TDIU professori

**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori

**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori

**Musyeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori

**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti

**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokururaturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti

**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti

**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti

**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**"ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK  
TEXNOLODIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH  
INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI"**

*MAVZUSIDAGI ILMIY MAQOLALAR TO'PLAMI*





# UGLEVODORODLARNING FIZIK-KIMYOVIY TAHLILI

**Abduraxmonov Olim Rustamovich**

texnika fanlari doktori, professor  
Buxoro muhandislik-tehnologiya instituti

**Islomov Alisher Nurillayevich**

Buxoro muhandislik-tehnologiya instituti  
maqsadli tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 300 kPa gacha bo'lgan bug' bosimida va 20÷190 °C harorat chegaralarida neft va gaz kondensati aralashmalarining zichligi, kinematik va dinamik qovushqoqlarining aniqlashtirilgan natijalari keltirilgan. Shuningdek, harorat ortishi bilan uglevodorod aralashmalarining asosiy fizik-kimyoiy xossalari ya'ni zichligi, kinematik va dinamik qovushqoqlari kamayib borishining sabablarini aniqlashda, D.I.Mendeleyevning formulasi, Nyuton qonuni, Reynolds-Filonov formulasi, A.K.Manovyan tenglamasi va boshqa qonuniyatlar yordamida hisoblash va eksperimental usullar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** neft, gaz kondensati, uglevodorod aralashmasi, nisbiy zichlik, solishtirma zichlik, kinematik va dinamik qovushqoqlik, harorat, bosim.

**Abstract:** This article presents the refined results of density, kinematic and dynamic viscosities of oil and gas condensate mixtures at vapor pressure up to 300 kPa and temperature limits of 20÷190 °C. Also, in determining the reasons for the decrease in the main physico-chemical properties of hydrocarbon mixtures, i.e. density, kinematic and dynamic viscosities, with the increase in temperature, based on calculation and experimental methods using D.I. Mendeleev's formula, Newton's law, Reynolds-Filonov formula, A.K. Manovyan's equation and other laws analyzed.

**Key words:** oil, gas condensate, hydrocarbon mixture, relative density, specific density, kinematic and dynamic viscosity, temperature, pressure.

**Аннотация:** В статье представлены уточненные результаты определения плотности, кинематической и динамической вязкости нефтегазоконденсатных смесей при давлении пара до 300 кПа и температурном пределе 20÷190 °С. Также при определении причин снижения основных физико-химических свойств углеводородных смесей, т. е. плотности, кинематической и динамической вязкости, с повышением температуры, на основе расчетных и экспериментальных методов с использованием формулы Д.И. Менделеева, закона Ньютона, Анализируются формула Рейнольдса-Филюнова, уравнение А. К. Мановяна и другие законы.

**Ключевые слова:** нефть, газовый конденсат, смесь углеводородов, относительная плотность, удельная плотность, кинематическая и динамическая вязкость, температура, давление.

## KIRISH

Insoniyatning progressiv tarzda o'sib borayotgan ehtiyojlariga ko'ra tabiiy yoqilg'ilar sarfining keskin oshishi energetika zahiralarining kamayib borishi xavfini yuzaga keltirib, energetik xomashyolardan oqilona foydalanshni taqazo etish bilan birga atrof-muhitga zarar keltirmaydigan muqobil energiya manbalarini izlab topish va ularni qo'llash yo'naliqidagi amalga oshiriladigan asosiy vazifalarning dolzarbligini oshiradi. Shu sababli ekologiyaga antropogen ta'sirni kamaytirish va yuqori sifatli yoqilg'i ishlab chiqarish hamda yurtimizda transport sohasi uchun tovar yoqilg'ilar tayyorlashda ekologik toza energoresurslarni qo'llash borasidagi tadqiqotlar bugunning ustuvor masalalaridandir.

Mazkur siyosatning huquqiy asoslari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanshni ta'minlash kabi vazifalar O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha "O'zbekiston – 2030" strategiyasida o'z aksini topgan.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

Uglevodorodlarning fizik-kimyoviy tahlili turli sanoat sohalarida, xususan, neft va gaz sanoatida, kimyo sanoatida va ekologik monitoringda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tahlillar uglevodorodlar tarkibini, xosalari va ularning kimyoviy reaksiyalarini aniqlashda yordam beradi.

Uglevodorodlarning fizik-kimyoviy xossalari ularning molekulyar tuzilishi va bog'lanishlaridan kelib chiqadi. Smith o'z tadqiqotida alkanlar, alkenlar va aromatik uglevodorodlarning molekulyar strukturasi va bu tuzil-malarning fizik-kimyoviy xossalariiga ta'sirini o'rgangan<sup>1</sup>. Ularning tadqiqotlari uglevodorodlarning qaynash va eritish nuqtalarini, eruvchanligini va boshqa termodinamik xossalarini batafsil bayon etadi.

Uglevodorodlarning tarkibini aniqlashda spektroskopik va xromatografik usullar muhim rol o'yaydi. M. Johnson va S. Lee o'z maqolasida<sup>2</sup> gaz xromatografiyasi-mass spektrometriya (GC-MS) va infraqizil spektroskopiya (IR) usullarining uglevodorodlarning miqdoriy va sifat tahlilidagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Ular ushbu usullarning nozik uglevodorod fraksiyalarini ajratishda va ularning tarkibini aniqlashda yuqori sezgirlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

E. Brown va H. Adams tomonidan olib borilgan tadqiqotlar uglevodorodlarning oksidlanish va gidrojenlash kabi reaksiyalarini o'rganishga qaratilgan<sup>3</sup>. Ular uglevodorodlarning katalitik reaksiyalarda qanday o'zgarishini va bu jarayonlarning sanoatdagi ahamiyatini batafsil tahlil qilishgan. Bu tadqiqotlar uglevodorodlarning reaksiyon qobiliyatini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi va ularni tozalash, qayta ishlash jarayonlarida qo'llash uchun asos yaratadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usulardan foydalaniildi. Uglevodorodlarning fizik-kimyoviy xossalari o'rganishda umumiylididan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalananish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalaniildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Neftning elementar tarkibi quyidagicha: 82,5-87% uglerod; 12,5-14,5% vodorod; 0,05-0,35, kamdan-kam hollarda 0,7% gacha kislorod; 1,8% gacha azot va 5,3% gacha (kamdan-kam hollarda 10% gacha) oltingugurt. Yuqorida aytib o'tilganlarga qo'shimcha ravishda, elementlar oz miqdorda neftda topilgan, shu jumladan. metallar (Ca, Mg, Fe, Al, Si, V, Ni, Na va boshqalar) [1].

Neftni qayta ishlash texnologiyasi fizik va kimyoviy jarayonlarga asoslangan. Bu jarayonlarni boshqarish uchun neft va gaz kondensatning fizik-kimyoviy xossalari chuqur bilishni talab qiladi [2].

Neftning birlamchi holatini tavsiflovchi asosiy fizik-kimyoviy va termofizik xususiyatlari zichligi, qovushqoqligi, solishtirma issiqlik sig'imi va issiqlik o'tkazuvchanligidir. O'rganilayotgan uglevodorod xom ashvosining bu xossalari haroratga qarab tahlil qilinadi [3].

Ko'pgina hollarda, kompozitsiyaning murakkabligi sababli, neft xom ashvosining fizik va kimyoviy xususiyatlarining o'tacha qlymatlari qo'llaniladi. Ushbu xususiyatlar qanchalik aniq aniqlansa, neftni qayta ishlash zavodlarini loyihalash uchun asos bo'lgan texnologik hisob-kitoblarning natijalari shunchalik aniq bo'ladi [4].

Tadqiqotni amalga oshirishimiz uchun dastlab, tarkibida 50% neft va 50% gaz kondensati bo'lgan uglevodorod aralashmasini tayyorlab oldik. So'ngra bu aralashmaning zichligi gidrometrik usul bilan aniqladik. Distillatning zichligini o'lchashda GOST 18481-81 bo'yicha ANT-1 va ANT-2 moylari uchun gidrometrlar (Steklopribor OAJ, Ukraina) ishlataligan. Gidrometri tekshiriladigan suyuqlikka botirib, aniqlash haroratida gidrometr shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlarni va natjalarni 20 °C da zichlikka qayta hisoblash orqali aniqlandi.

Tadqiqot ob'yekti sifatida tanlangan qobiq quvurli issiqlik almashinish qurilmasida olib borilayotgan texnologik jarayonlarning harorati 180÷200 °C ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, fizik kattaliklarni 190 °C haroratgacha hisoblashni amalga oshirdik. Shu sababdan tadqiq qilayotgan uglevodorodning 20÷190 °C haroratlardagi zichliklarni matematik ifodalar yordamida emperik formulalar orqali aniqlaymiz.

20÷150 °C harorat oralig'ida neft fraksiyasi distillatining zichligi D.I. Mendeleyevning formulasidan foydalanamiz. Ushbu formulaning xatolik darajasi 5-8% ni tashkil qiladi [5; 6]:

1 Smith, J.(2017). Molecular Structure and Physical Properties of Hydrocarbons. Journal of Physical Chemistry, 121(3), 1123-1135.

2 Johnson, M., & Lee, S. (2019). Advanced Chromatographic Techniques for Hydrocarbon Analysis. Analytical Chemistry, 91(6), 4567-4578.

3 Brown, E., & Adams, H. (2020). Reactivity of Hydrocarbons in Catalytic Processes. Catalysis Reviews, 62(4), 375-399.



$$\rho_4^t = \rho_4^{20} - a(t-20) \quad (1)$$

bu yerda – xomashyoni berilgan haroratdagи zichligi va – 20° C da neftning zichligi 4° C da suvning zichligiga nisbatiga tenglashtirilgan nisbiy zichligi; a – 1 °C ga haroratni o'zgarishdagi to'g'rilash ko'satkichi va kattaligiga bog'liq bo'lib, adabiyotlarda keltirilgan [3]. Chet elda neft va suv uchun standart harorat 60 °F (15,5 °C) dir. Bunda solishtirma zichlik belgilanadi.

$$\rho_{15}^{15} = \rho_4^{20} + \frac{0,0035}{\rho_4^{20}} \quad (2)$$

yoki

$$\rho_{15}^{15} = \rho_4^{20} + 5a \quad (3)$$

150°C dan 300°C gacha haroratlarda A.K.Manovyan tenglamasiga ko'ra hisoblangan [5]:


$$\rho_4^t = 1000\rho_4^{20} - \frac{0,58}{\rho_4^{20}}(t-20) - \left[ \frac{t-1200(\rho_4^{20}-0,68)}{1000} \right] \cdot (t-20) \quad (4)$$

Uglevodorod xomashyosining 20÷190 °C haroratlardagi zichligini hisoblash bo'yicha olib borilgan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval.** Tadqiq qilinayotgan uglevodorod xomashyosining 20÷190 °C haroratlardagi zichligini hisoblash natijalari.

t, °C	20	30	40	50	60	70	80	90	100
ρ, kg/m³	806	798	791	783	775	768	760	752	745
t, °C	110	120	130	140	150	160	170	180	190
ρ, kg/m³	737	729	722	714	710	704	695	686	677

Tadqiq qilinayotgan suyuqlikning zichligini aniqlash bo'yicha olib borilgan matemematik hisoblash natijalari shuni ko'rsatadiki, haroratning 20 °C dan 190 °C gacha ortishi bilan uglevodorod aralashmasining zichligi 806 kg/m³ dan 677 kg/m³ gacha o'zgarib, 1,19 marataba pasayish kuzatildi.



**1-rasm.** Tadqiq qilinayotgan uglevodorod xomashyosining 20÷190°C haroratlardagi zichligini hisoblash natijalarining grafigi.



Tadqiq qilinadigan moddaning qovushqoqligini aniqlash

Qovushqoqlik neft va neft mahsulotlari sifatining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u tarkibiy uglevodorodlarning tuzilishi bilan belgilanadi, ya'ni. ularning tabiatini va munosabatlari. Ma'lumki, uglevodorod xom ashyosining yopishqoqligi molekulyar og'irlik va qaynash nuqtasi ortishi bilan ortadi. Neftning qovushqoqlik qanchalik past bo'lsa, uni tashish va qayta ishlash osonroq bo'ladi.

Qovushqoqlik uglevodorod xom ashyolarining fizik-kimyoiy va termofizik xususiyatlarini tavsiflash uchun muhim ahamiyatga ega. Bu xom ashyoning termodinamik xususiyatlarini ham, zichlik va issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsientlarini ham hisoblash imkonini beradi [7]. Xom ashyoning qovushqoqligi o'lchanadigan standart harorat 20 °C dir.

Qovushqoqlik bu haqiqiy suyuqliklar quvur bo'ylab harakatlanganda, uning ichida hosil bo'lgan ishqalanish kuchlari (T) Nyuton qonuni bilan ifodalanadi [8]:

$$T = \mu F \frac{dw}{dn} \quad (5)$$

bu yerda  $F$  - ishqalanish yuzasi;  $-$  tezlik gradienti,  $-$  qovushqoqliknинг dinamik koeffitsienti. Qovushqoqliknинг dinamik koeffitsienti SI ga binoan quyidagi birlikda o'lchanadi:

$$\mu = \frac{T}{F \left( \frac{dw}{dn} \right)} = \frac{H}{m^2 \left( \frac{m/s}{m} \right)} = \frac{H \cdot s}{m^2} = Pa \cdot s \quad (6)$$

Dinamik qovushqoqlik koeffitsientining shu suyuqlik zichligiga nisbati kinematik qovushqoqlik deyiladi va v bilan belgilanadi:

$$v = \frac{\mu}{\rho} \quad (7)$$

SI o'lchov birligida kinematik qovushqoqlik  $m^2/s$  birligida o'lchanadi.

Haroratning ortishi bilan suyuqliknинг qovushqoqligi kamayadi, gazlarda esa ortadi. Suyuqliklarning qovushqoqligi gazlarnikiga nisbatan bir necha marta katta bo'ladi.

Nyutonning ichki ishqalanish qonuniga bo'y sunadigan suyuqliklar (masalan, suv, spirt, benzol) nyuton suyuqliklari deyiladi. Neft, kolloid eritmalar, moyli bo'yoqlar, smolalar, past haroratda ishlatiladigan surkov moylari nyuton suyuqliklari qatoriga kirmaydi; bunday suyuqliklar nonyuton suyuqliklar deb yuritiladi [8].

Suyuqlik bir qatlagini ikkinchi qatlamiga nisbatan siljiganda ko'rsatadigan qarshiligiga qovushqoqlik deyiladi. Turli suyuqliklarning qovushqoqlik xossalari dinamik va kinematik qovushqoqlik koeffitsentlari orqali baholanadi.

$\mu$  -dinamik qovushqoqlik koeffitsenti, birligi-Puaz (Pz)

$v$  -kinematik qovushqoqlik koeffitsenti, birligi-Stoks (St)

Tadqiq qilinayotgan suyuqliklarni kinematik qovushqoqligi tajriba yo'li bilan VPJ-4 viskozimetri yordamida aniqlandi va quyidagi formula orqali hisoblandi [8; 9]:

$$v = \frac{g}{9.807} \cdot \tau_{0,r} \cdot K \quad (8)$$

bu yerda  $g = 9,81 \text{ m/s}^2$  – erkin tushish tezligi; – tadqiq qilinayotgan suyuqliknинг viskozimetri trubkasidan oqib o'tish vaqtining o'rtacha arifmetik kattaligi, c;

$K = 0,02880 \text{ mm}^2/\text{s}^2$  - viskozimetri doimiysi.

Kinematik qovushqoqlik  $v$  ( $\text{mm}^2/\text{s}$ ) muhitning o'lchanan oqim vaqtini va qurilma konstantasi C mahsuloti:

$$v = C \tau, \quad (9)$$

bu yerda  $C$  - viskozimetrnинг kalibrash konstantasi,  $\text{mm}^2/\text{s}^2$ ; – amal qilish muddatining o'rtacha arifmetik qiymati, c.

Distillyatlarning kinematik viskozitesini o'lhash uchun seriya raqami 2129 bo'lgan shisha viskozimetri VPJ-4 ishlatilgan (kapillyar diametri  $d = 0,82 \text{ mm}$ , asbob konstantasi  $K = 0,02880 \text{ mm}^2/\text{s}^2$ ). Tajribalar GOST 33-2000 (ISO 3104 94) standartiga muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiq qilinayotgan uglevodorod namunalarining kinematik quvushqoqligini o'lhash bo'yicha tajribalar dastlab, dastgohli o'rnatishda, dastgoh termostatidagi suvning qaynash nuqtasi bilan chegaralangan 20 dan 98 °C gacha bo'lgan haroratlarda o'tkazildi. So'ngra, issiqlik almashtirgichlarning ish sharoitlariga mos keldigan 98 °C dan yuqori (190 °C gacha) haroratda ya'ni har qanday haroratda neft fraksiyasining kinematik qovushqoqligini Reynolds-Filonov formulasi yordamida hisoblab chiqilgan [10]:

$$v = v_0 e^{-k \cdot (T - T_0)} \quad (10)$$

bu yerda  $v_0$  -  $T_0 = 293,15 \text{ K}$  da nefting qovushqoqligi;  $e = 2,71$  - natural logarifmning asosi;  $T$  - qovushqoqlik aniqlanadigan harorat;  $k$  - viskogramma krutiz koeffitseinti quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$K = \ln(v_0/v) / (T - T_0).$$



Yagona tadqiqot dasturiga ko'ra, uglevodorod namunalarining kinematik quvushqoqligi qiymatlari har 10 °C da aniqlanadi. 2-rasmda esa ikki holatni (20 dan 98 °C gacha va 98 °C dan yuqori 180 °C gacha) umumlashtirib, ya'ni 20÷180 °C harorat oralig'dagi kinematik qovushqoqlikni aniqlash bo'yicha hisob-kitob natijalarining grafigi keltirilgan.

Uglevodorod aralashmasining 20÷180 °C harorat oralig'ida kinematik qovushqoqligi 1,88 mm<sup>2</sup>/s dan 0,1 mm<sup>2</sup>/s gacha kamayadi.

[11] Uglevodorod xomashyosining yuqorida aniqlangan kinematik quvushqoqligining v qiymatlari asosida uning dinamik quvushqoqligini  $\mu$  (Pa·s) quyidagi formula bo'yicha hisoblandi:


$$\mu = v \cdot \rho \cdot 10^{-3}, \quad (10)$$

Uglevodorod gazlarining dinamik quvushqoqligini (Pa·s), shu jumladan neft fraksiyasi bug'larini hisoblash esa quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi [12].

$$v_g = \frac{T}{\rho} \cdot (6,6 - 2,25 \lg M) 10^{-3}, \quad (2.11)$$

bu yerda T-harorat, K;  $\rho$  – zichlik; M – molekulyar og'irlilik.

20÷190 °C haroratda olib borilgan uglevodorod xomashyosining zichligi (kg/m<sup>3</sup>), kinematik qovushqoqligi v (mm<sup>2</sup>/s) va dinamik quvushqoqligini  $\mu$  (Pa·s) hisob-kitob natijalarini umumlashtirib, uni grafik asosida ko'r-satish mumkin.



2-rasm. Harorat oshishiga qarab, uglevodorodning kinematik (v) va dinamik qovushqoqligini ( $\mu$ ) o'zgarishi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, harorat 20 °C dan 100 °C ga ko'tarilganida uglevodorodning kinematik va dinamik qovushqoqligi natijalarida tez pasayish kuzatildi. Aksincha, harorat 100 °C dan 190 °C ga ko'tarilganida esa pasayish tezligi biroz past bo'ldi. Umuman olganda, harorat 20÷190 °C ko'tarilganda uglevodorod xomashyosining kinematik qovushqoqligi 1,88 dan 0,08 mm<sup>2</sup>/s gacha, 23,5 baravarga, dinamik qovushqoqligi esa 1,51 dan 0,05 Pa·s gacha, 30,2 baravarga kamayadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Uglevodorodlarning fizik-kimyoviy tahlili ularning sanoat jarayonlarida keng qo'llanilishi va atrof-muhit xavfsizligi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, uglevodorodlarning molekulyar tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalari ularning reaktivligi va qo'llanilish sohasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Spektroskopiya va xromatografiya kabi ilg'or tahlil usullari uglevodorodlarning tarkibini aniqlash va ularni to'g'ri tasniflash imkonini beradi.

Shuningdek, uglevodorodlarning katalitik reaksiyalarda qanday o'zgarishi va ularning sanoatdagи ahamiyati, ayniqlsa, energiya ishlab chiqarish va kimyo sanoatida, batafsil o'rganilgan. Tadqiqotlar uglevodorodlarning



gayta ishlash jarayonlari samaradorligini oshirish uchun yangi katalizatorlar va usullarni ishlab chiqishning dolzarbigini ko'rsatadi.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida uglevodorodlarning monitoringi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalar uglevodorodlarning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish va ularning zararli komponentlarini aniqlashga qaratilgan. Bu maqolada ko'rsatilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari uglevodorodlarning tahsilida qo'llaniladigan metodlarni takomillashtirish, ularning ekologik xavfsizligini ta'minlash va sanoat jarayonlarida samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Глаголева О.Ф., Капустин В.М., Гюльмисарян Т.Г. и др. Технология переработки нефти. В 2-х частях. Часть первая. Первичная переработка нефти /Под ред. О.Ф. Глаголевой и В.М. Капустина. – М.: Химия, Колос, 2006. – 400 с. 1.
- Салимов З.С., Исмаилов О.Ю. Плотность и вязкость жидких углеводородов при температурах 20-98 °C.// Научно-технический журнал «Нефтепереработка и нефтехимия». Москва: 2014. №1. –С. 18-22.
- Нефть, газ и продукты их переработки. Учебное пособие// Фукс И.Г., Холодов Б.П. – М.: Нефть и газ, 1994. 163 с.
- Расчеты основных процессов и аппаратов нефтепереработки: Справочник //Рабинович Г.Г., Рябых П.М., Хохряков П.А. и др., под ред. Е.Н. Судакова. - 3-е изд., перераб. и доп.- М.: Химия, 1979. – С.551.
- Сарданашвили А.Г., Львова А.И. Примеры и задачи по технологии переработки нефти и газа: учебное пособие для студентов нефтяных специальностей вузов. 2-е изд., перераб. и доп. –М.: Химия, 1980. – 256 с.
- Глаголева О.Ф., Капустин В.М., Гюльмисарян Т.Г. и др. Технология переработки нефти. В 2-х частях. Часть I. Первичная переработка нефти. Под ред. О.Ф. Глаголевой и В.М. Капустина. М.: Химия, КолосС, 2006. – 400 с.
- Smith, J. (2017). Molecular Structure and Physical Properties of Hydrocarbons. Journal of Physical Chemistry, 121(3), 1123-1135.
- Johnson, M., & Lee, S. (2019). Advanced Chromatographic Techniques for Hydrocarbon Analysis. Analytical Chemistry, 91(6), 4567-4578.
- Brown, E., & Adams, H. (2020). Reactivity of Hydrocarbons in Catalytic Processes. Catalysis Reviews, 62(4), 375-399.
- Сарданашвили А.Г., Львова А.И. Примеры и задачи по технологии переработки нефти и газа: учебное пособие для студентов нефтяных специальностей вузов. 2-е изд., перераб. и доп. –М.: Химия, 1980. – 256 с.



# MUNDARIJA

Muhandislar – taraqqiyot tayanchi .....	4
<b>Sadoqat Siddiqova</b>	
Исследование влияние азотсодержащей добавки на процесс окисления битумов .....	9
<b>Юлдашев Норбек Худайназарович</b>	
Ziyorat turizmning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'siriga oid muammolar yechimida terminologiyaning ahamiyati.....	14
<b>Malohat Jo'rayeva, Shavkat Bafoyev</b>	
Ekspluatasiya davrida kompressor moylarining ishlashi va fizik-kimyoviy xususiyatlari o'zgarishining o'ziga xosligi .....	19
<b>Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich</b>	
Tabiiy gazning oltingugurtli qo'shimchalarining fizik-kimyoviy xossalarni tadqiq qilish .....	24
<b>Muxtor Jamolovich Maximov, Ramazonov Bahrom G'afurovich</b>	
Автоматическое формообразование пневматических опалубок бикубическими сплайнами.....	30
<b>Ядгаров Ўкташ Турсунович, Ахмедов Юнус, Асадов Шуҳрат Кудратович</b>	
Optimizing the efficient transport of mass from alternative energy sources and the process of heat and mass exchange during the processing of spices .....	37
<b>Khayrullo Djurayev Fayzievich, Mizomov Mukhammad Saydulla ugli</b>	
The role of digitalization in regional development and the utilization of their potential for sustainable development .....	44
<b>Jafarova Khilola Khalimovna</b>	
Разработка новых структур и способов выработки комбинированного трикотажа с повышенной формоустойчивостью на базе интерлокного переплетения .....	48
<b>Гуляева Г.Х., Мукимов М.М., Каримова Н.Х.</b>	
Кислотная активация навбахорской бентонитовой глины .....	53
<b>Хужакулов Азиз Файзуллаевич, Хотамов Кобил Ширинбой угли</b>	
Mustaqil ta'limdi tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....	58
<b>Murodova Zarina Rashidovna, Jo'raqulova Mehrangez Orifovna</b>	
Kislородли birikmalar asosida olingan antidental sion kompozitsiyalarning ai-80 avtomobil benzinini detonatsion barqarorligiga ta'sirini tadqiq qilish .....	66
<b>Saloydinov Aziz Avazovich</b>	
Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	70
<b>Akramova Obida Qosimovna</b>	
Исследование механико-технологических параметров глубокого рыхления почвы подпахотного горизонта.....	77
<b>Н.С.Бибутов, Ф.Ю.Хабибов, Ш.М.Муродов</b>	
Разработка экспериментальной установки энергосберегающего измельчителя фруктов и овощей для производства сок с мякотью.....	85
<b>Ф.Ю. Хабибов, X.X. Ниязов</b>	
Tуризм: типология и классификация.....	95
<b>Малоҳат Мухаммадовна Жураева, Марупова Гульноз Умарджоновна</b>	
"Yashil energetika"ni rivojlantirishni rag'batlantirishning me'yoriy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.....	99
<b>Sadullayev Nasullo Ne'matovich, G'afurov Mirzoxid Orifovich, Ne'matova Zuxra Nasullo qizi</b>	
Umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda diversifikatsiyalangan milliy hunarmandchilik mahsulotlaridan foydalanishning ahamiyati.....	108
<b>Ruziyeva Gulinoz Fatilloyevna, Raximova Dilorom Sulaymonovna</b>	
Polimerlar ishlab chiqarishda hamda ularni qayta ishlashda hosl bo'ladigan chiqindilardan samarali foydalanish jihatlari .....	114
<b>Raxmatov Sherzod Shuxratovich, Sadirova Saodat Nasreddinovna, Niyozova Rano Najmiddinovna, Axmedov Hafiz Ibroimovich</b>	
Kichik quvvatli, energiya samarador shamol turbinalari ko'rsatkichlarining tahlili.....	118
<b>I.I. Xafizov, F.F. Muzaffarov, M.Sh. O'ktamov</b>	



Анализ ингредиентов пищевых продуктов с помощью нейронной сети ..... <b>Мухамдиева Зарина Баходировна</b>	127
Dizel moylarini reologik xossalarini tatqiq qilish ..... <b>Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich, Toshov Mavzuddin Sa'dullo o'g'li</b>	132
Анализ состав и свойства нефтяных остатков и битумов ..... <b>Юлдашев Норбек Худайназарович, Махмудов Мухтор Жамолович, Комолов Руслан Илхомбекович</b>	136
Kambag'allikdagi tarkibiy o'zgarishlarning aholi turmush forovonligi darajasiga ta'sirining ahamiyati ..... <b>Xayitov Sherbek Naimovich</b>	141
Maxsus kiyimlar tikishda foydalanimadigan gazlamalar tahlili ..... <b>Sayidova MaftunaHamroqul qizi</b>	148
Production of tomato paste ..... <b>Ergasheva Muhabbat Komil kizi</b>	153
Problems of development of research and innovative activities in higher educational institutions ..... <b>Rakhimova Dilnoza Davronovna, Alimova Ruxsora Xamzayevna</b>	156
O'zbekiston mehnat bozorida bandlikning innovatsion turlarini shakllantirish va rivojlantirish omillari ..... <b>Avezova Shaxnoza Maximjonovna</b>	159
Dual ta'lilda keys texnologiyasini qo'llash ..... <b>Sariyev Rustam Bobomuradovich</b>	166
Mintaqada bank-moliya tizimini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari ..... <b>Jumayev Bahodir Raxmatullayevich</b>	169
Chiqindi AKM katalizatorlardan kobalt va molibdenni ajratish usuli ..... <b>Tursunova F. J., G. R. Bozorov</b>	174
Hududlarning mutanosib barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlari (ijtimoiy rivojlanish va yo'nalishlar) ..... <b>Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich</b>	180
Sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini samarali boshqarish muammolari ..... <b>Kudratov Muhammad Rustamovich</b>	185
Iqtisodiyotdagi innovatsion o'zgarishlar sharoitida kambag'allikni qisqartirish orqali aholi farovonligini oshirish ..... <b>Amrulloev Dadaxon Nurmat o'g'li</b>	190
Mintaqada barqaror rivojlanishni ta'minlashda raqamli texnologiyalarning o'rni ..... <b>Jafarova Hilola Xalimovna</b>	194
Nordon gazlarni aminli tozalash jarayonida ko'pik so'ndirgichlarning kimyoviy ta'sir mexanizmi ..... <b>Muxtor Jamolovich Maximov, Ramazonov Bahrom G'afurovich</b>	198
Uglevodorodlarning fizik-kimyoviy tahlili ..... <b>Abduraxmonov Olim Rustamovich, Islomov Alisher Nurillayevich</b>	207

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

### 2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

